


XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 243,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 125,1 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 19 294 ta korxonalar va tashkilotlarda 210,1 ming kishini tashkil qildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, foizda

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming so‘m
(2022- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)


SANOAT SOHASIDA



Yanvar-sentabr

4 488,0
ming so‘m


QURILISH SOHASIDA



Yanvar-sentabr

2 323,3
ming so‘m


SAVDO SOHASIDA



Yanvar-sentabr

2 491,7
ming so‘m

TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



Yanvar-sentabr

2 231,2
ming so‘m

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



4 276,2
ming so'm

Iyul

Avgust

4 149,4
ming so'm

3 794,4
ming so'm

Sentabr

Yanvar-sentabr

3 650,0
ming so'm

BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



10 595,6
ming so'm

Iyul

Avgust

10 794,7
ming so'm

9 861,9
ming so'm

Sentabr

Yanvar-sentabr

9 445,8
ming so'm

TA'LIM SOHASIDA



2 621,1
ming so'm

Iyul

Avgust

2 627,1
ming so'm

2 936,1
ming so'm

Sentabr

Yanvar-sentabr

2 605,0
ming so'm

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



2 910,5
ming so'm

Iyul

Avgust

2 807,8
ming so'm

2 936,1
ming so'm

Sentabr

Yanvar-sentabr

2 636,2
ming so'm

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili:
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat sohasidagi 73 ta korxonada 42,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1 680,3 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 28,0 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 488,0 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 26,1 % ga o'sdi.

Qurilish faoliyat turidagi 10 ta korxonada 0,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,3 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 13,4 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 323,3 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga o'sdi.



Savdo faoliyat turidagi 19 ta korxonada 1,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 36,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 491,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga o'sdi.

Tashish va saqlash faoliyat turidagi 14 ta korxonada 2,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 48,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 231,2 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 34,2 % ga o'sdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi 3 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 555,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 39,6 % ga o'sdi.



Axborot va aloqa sohasidagi 9 ta korxonada 1,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 31,8 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 650,0 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 32,3 % ga o'sdi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 342,0 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 9 445,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 40,4 % ga o'sdi.



Ta'lim sohasi iqtisodiy faoliyat turidagi 1 509 ta korxonada 92,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,1 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 128,5 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 35,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 605,0 ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 18,5 % ga o'sdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi dagi 81 ta korxonada 38,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,3 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 904,8 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 636,2 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga o'sdi.




San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi 70 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 42,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 259,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 21,7 % ga o'sdi.

Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 417 ta korxonada 25,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 12,0 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 764,7 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 12,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 357,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 35,9 % ga o'sdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 9 455,8 ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko'rsatkichlar sanoat faoliyat turida (4 488,0 ming so'm) va axborot va aloqa faoliyat turida (3 650,0 ming so'm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 1 555,9 ming so'mni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar - sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,
ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (5 134,2 ming so‘m), Andijon shahrida (4 145,8 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati
(2022- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming. so'mda)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	2 592,9	3 243,0	125,1
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	3 263,8	4 145,8	127,0
Xonobod sh.	2 611,4	3 488,1	133,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	1 913,2	2 221,2	116,1
Andijon	2 056,0	2 532,6	123,2
Baliqchi	1 794,4	2 063,3	115,0
Bo'ston	1 802,5	2 113,7	117,3
Buloqboshi	1 887,3	2 171,5	115,1
Jalaquduq	2 001,6	2 253,7	112,6
Izboskan	2 134,7	2 574,9	120,6
Ulug'nor	1 863,0	2 176,2	116,8
Qo'rg'ontepa	2 004,5	2 576,7	128,5
Asaka	3 824,7	5 134,2	134,2
Marhamat	1 808,7	2 462,1	136,1
Shahrixon	2 083,3	2 697,7	129,5
Paxtaobod	2 144,2	2 697,1	125,8
Xo'jaobod	2 023,1	2 351,1	116,2

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbati foizda

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (5 134,2 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 158,3 % ga yuqori), Andijon shahri (4 145,8 ming so'm, 127,8 % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Bo'ston tumani (2 113,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 65,2 % ga past) va Baliqchi tumani (2 063,3 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 63,6 % ga past) da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022 yil sentabr oyidan **920 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022- yil 20- maydagi PF 138-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

